



SHAYBONIYXON DAVLATI VA UNING BOSHQARUV TERMINLARI BO`YICHA AYRIM MULOHAZALAR

Abduraxmonov Bobur

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo`nalishi 1-bosqich talabasi

+998947877074

boburabduraxmonov64@gmail.com

Ilmiy rahbar: Parmonov Sharofiddin Shavkatovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar

Fakulteti O`zbekiston tarixi kafedrası o`qituvchisi

Annotatsiya: Temuriylar davlatining tanazulga yuz tutishi, Shayboniylar davlatining tashkil topishi, uning hududining kengayishi, Shayboniyxon davridagi boshqaruv sohasidagi o`zgarishlar, Shayboniylar davlatining Safaviylar bilan munosabatlari yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** Temuriylar, Abulxayrxon, Shoh Budoq, Shayboniyxon, Toshkent, Samarqand, Xo`ja Ahror, Yunusxon.

Abulxayron o`limidan so`ng shayboniylar honadonidagi ichki ziddiyatlar sabab sulola zaiflashganiga qaramay, Muhammad Shohbaxt davriga kelib shayboniylar yana bir bor qaddilarini tikish imkoniga ega bo`ldilar. Muhammad Shohbaxt Abulxayrxonning Shoh Budoq nomli o`g`lidan tug`ilgan nabirasi bulib, biz uni asosan Muxammad Shayboniyxon (1451—1510) nomila yaxshi bilamiz Shobudoq Sultonning ikki o`g`li bo`lib Muhammad Shayboniyxon va Mahmud Sultondir. Abulxayxon esa Chingizxon o`g`li Jo`jining beshinchi o`g`li Shaybon naslidan bo`lgan. Shayboniyxonning bobosi Abulxayrxon saroyida ham turkiylar odatiga ko`ra tug`ilgan go`dakka ikki ism qo`yish urf bo`lgandi. Bu



ismlarning birinchisi hamisha turkiy, ikkinchisi, albatta, islom aqidalaridan kelib chiqib, arabcha bo'lardi. Tug'ilganda Muhammad deb nom olgan Shayboniyxon ham o'zining ikkinchi ismi bilan ko'proq tilga olinganining sababi shu bo'sa kerak.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Shayboniy otasi Budoq Sulton bilan onasi Qo'zibegimdan yoshligida yetim qolib, ukasi bilan birga otasining sodiq xizmatkori Qorachabek oilasida tarbiyalandi. Qorachabek bu shahzodadan mehr-shafqatini ayamadi, unga sadoqat bilan xizmat qildi. Ilm fan bilan ko'p yillar oshno bo'ladi."

Balog'atga yetgan Shayboniy Abulxayrxon o'rdusining turli taraflarga tarqalib ketgan kishilarini atrofiga to'plab, bobosining saltanatini tiklashni orzu qiladi. Jiddiy tayyorgarlikdan so'ng, sulolaning yo'qolgan shon-shavkatini qaytarmoqqa kirishadi. Dastlab, yosh Muhammad Shayboniyxon parchalangan Temur davlatining shimoliy chegarasida noiblik qilayotgan Kushliqxon o'g'li Majid tarxondan uni o'z xizmatiga olishni so'raydi. Majid tarxon rozilik beradi. Ammo, tez orada o'z hokimiyatiga xavf solayotgan o'zbeklardan, eng avval Shayboniyxondan qo'rqqan Majid tarxon ularni Buxoro hokimi Abdulali tarxon huzuriga jo'natib qutulishga qaror qiladi. Buxoro hokimi o'zbeklarni yaxshi kutib oldi va ulardan unumli foydalanish choralarini topdi Avvalo, u atrofdagi turk beklariga murojaatnoma yuborib, ularni temuriylar hokimiyatini butunlay tugatishga da'vat etdi. Bunga ayni fursat kelganini anglatdi.[1]

Temuriylar o'rtasidagi sulolaviy urushlar, keyinroq esa Shayboniyxon qo'shinlarini qo'llab-quvvatlashda Toshkent mulki zodagonlari katta ro'l o'ynadilar. 1485 yilda Toshkent hokimiyatini mashhur diniy arbob Xo'ja Ahror yordamida Yunusxon egallagan bo'lsa, uning vafotidan so'ng o'g'li Mahmudxon (1487-1503yy) Toshkent taxtini egallaydi. Mahmudxon temuriylarga qarshi kurashda Shayboniyxon ittifoqini umid qilgan bo'lsa-da, niyatiga eta olmadi. 1494 yilda Samarqand hukmdori Sulton Ali Mirzo vafot etgach, temuriylar o'rtasidagi nizolar yanada kuchayib ketdi. Bundan foydalangan Shayboniyxon 1497 va 1499 yillarda Samarqandga hujum uyushtirib, uni ikki marta qamal qildi. 1500 yilda Andijon hokimi Bobur Mirzo Samarqandga yurish qildi. Ammo, Shayboniyxon undan



oldinroq harakat qilib Samarqandni egalladi. Shayboniyxon Samarqandni olishi bilan amalda Temuriylar hokimiyati inqirozga uchradi. [2]

Mana shu Temuriylar hukmronligiga qo'yilgan nuqta Shayboniyxon va uning sulolasi uchun qora tamg'a bo'ldi. Lekin G. Vamberi ta'kidlaganidek, "Temuriy sulolasi yulduzi so'nayotgandi va 19 yoshli Bobur Mirzo uni to'xtatishga qodir emasdi". Haqiqatan ham, tarixiy vaziyat yangi hukmron sulolaning taxtga kelib davlatni birlashtirishi, o'zaro urushlarga nuqta qo'yishini taqozo qilmoqda edi. "...temuriylarning Movarounnahr tarixi sahnasidan tushishiga, Shayboniyxon emas, temuriy shahzodalarning o'zlari aybdor edilar, ya'ni Sohibqiron bobolari birlashgan saltanatning parchalanishi taxt talashgan shahzodalarning kelishmasligi, o'zaro ittifoqning yo'qligidan yuz berdiki, bu tarixiy haqiqat va tarixning qaytarilmas hukmi edi. Buning odil va xolis bahosini Bobur Mirzo "Boburnoma"da aniq - ravshan bitib qo'ygan". [4]

Shayboniyxonni asosiy qo'shinlari bilan 1504 yilda Xisor viloyatiga yurish qilib uni bosib olisga myvaffaq bo'ldi. Xisor hokimi Xusravshoh ancha kata harbiy kuchga ega bo'lsa-da Shaybonixonga jiddiy qarshilik ko'rsata olmadi. Natijada Xisor viloyati barcha tog'lik tumanlari bilan birga Shayboniylar ixtiyoriga o'tadi hamda Temiz va Amudaryoninig so'l qirg'og'ida joylashgan Qunduz, Tolqon, Badaxshon va Balx ishg'ol etadi. Bu harbiy Yurishlarda qatnashgan tajribali lashkarboshi Sulton Mamxmud 1505 yil Qunduzda kasallikdan vafot etadi. Uning jasi Qarshi orqali Samarqandga olib kelinib dafn etildi.

Shaybonixonning Movarounnahr va Xurosonni birlashtirib markazlashgan davlat tuzishga halaqt bergan yana bir raqib Dashti Qipchoqda hukmron bo'lib qolgan qozoq sultonlari edi. 1504 yilda Balx shahrini qamal qilib turgan Shaybonixon qozoq sultonlarining Movarounnahrda hujum qilganligini eshitib orqaga qaytishga majbur bo'ladi va Dashti qipchoqqa yurish qiladi. Qozoq sultonlari ochiq jangdan qo'rqib chekingan bo'lsalarda 1506 yilda Shaybonixonni Xurosondaligini eshitib yana Movarounnahrda bostirib kirib uni talon-taroj qiladilar. Shaybonixon majburlikdan yana orqaga qaytib Qozoq



sultonlarini Dashti qipchoqni ichigacha quvib boradi. 1508 yilda qozoq sultonlari hujumi yana takrorlanadi. O'sha yili Shaybonixon hozirgi Afg'onistonning Qandahor va Zamindovur viloyatlarini ishg'ol etib Qobulda turgan Zahriddin Muhammad Bobur bilan kurashish uchun to'planayotgan edi. Uning yo'qligidan foydalangan Qozoq sultonlari Axmad sultonlar bilan Jonish sultonlar Movarounnahrda hujum qilib buxoro va Samarqandgacha etib keldilar va ko'pchilik odamlarni asir olib, kata o'lja bilan qaytdilar. 1508 yilda Shaybonixon Buxoroga qaytib keladi va Qozoq sultonlari bilan hal qivchi jangga tayyorgarlik ko'radi. 1509-yilning boshlarida o'zbeklarning kata qo'shini Dashti qipchoq ustiga yurish boshlaydi va mart oyida Qora Abdalni egallaydi.

1510-yilda Erondan orqaga qaytgan Shaybonixon uning izidan katta kuch bilan etib kelgan Eron shohi Ismoil Safaviy qo'shinlari bilan jangga kirishdi. Marv yaqinida bo'lib o'tgan bu jangda Shaybonixonning kam sonli qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi bu jangda halok bo'ldi. [2]

Shayboniylar hukmronligi yillarida oliy davlat idorasi dargoh deb atalgan. Uning tepasida xon turgan. Shayboniylar davlatida devonbegi (bosh vazir) lavozimi katta nufuzga ega bo'lgan. U davlatda moliya va xo'jalik ishlarini boshqargan. Xonlikda muhim davlat mansabi naqib hisoblangan. U xonning eng yaqin va ishonchli kishisi bo'lgan. Xonning farmon va yorliqlarida naqibning nomi birinchi bo'lib yozilgan. Ayni paytda u davlat ichki va tashqi siyosati masalalarida xonning birinchi maslahatchisi hisoblangan. Bundan tashqari, naqib harbiy yurishlarni uyushtirgan. Zarur bo'lganda elchilik vazifasini ham bajargan. Yana bir katta davlat mansabi bu otaliq edi. Xon siyosatining viloyatlardagi ta'siri otaliq mansabiga tayinlanganlarning nufuzi bilan belgilangan. Xon viloyatlarni shahzodalarga taqsimlab berar ekan, ularga rahnamo etib o'z nazoratchisini, ishongan kishisini tayinlagan. Bunday nazoratchi, ishonchli shaxs otaliq deb atalgan. Balog'atga yetmagan shahzodalar ulg'ayib, mustaqil faoliyat yuritgunlariga qadar davlat ishlarini ularning nomidan otaliqlar boshqargan. Yana bir davlat mansabi parvonachi deb atalgan.



Uning vazifasi xon farmonlarini, rasmiy hujjatlarni mas'ul shaxslarga, ijrochilarga yetkazishdan iborat bo'lgan.

Muhammad Shayboniyxonning vafotidan so'ng davlatdagi markaziy hokimiyat anchagina zaiflashdi. Beklar (amirlar) va sultonlarning ko'pchiligi Shayboniyxondan keyingi bir nechta xonlarga nomigagina bo'ysundilar. Shayboniylar davlati boshqaruvida islomiy odat va shariat qonunqoidalariga qattiq rioya qilingan.

Shayboniylarning davlat boshqaruvi mulk tizimiga asoslangan edi. Muhammad Shayboniy qo'lga kiritilgan yerlarni o'z qarindoshlari, sultonlar va beklarga taqsimlab berdi. Ularning har biri mulk boshqaruviga ega bo'lib, bu yerda mustaqil siyosat olib borishga intildi. Shu tarzda mustaqil, tarqoq yer egalari Shayboniyxonning bosqinchilik yurishlari jarayonida birlashgan bo'lsalar-da, bu birlashish uzoqqa cho'zilmadi. Ana shu vaziyatda Shayboniyxon o'z hokimiyati ostidagi sultonlar orasida markazdan qochish kuchini kamaytirish uchun bir qator tadbirlar ko'rdi. Masalan, u ayrim sultonlar va amirlarni bir mulkdan ikkinchisiga ko'chirishga harakat qildi, ammo bu narsa har doim ham u istagan natijani bermadi. [5]

Xulosa qilib aytganda Temuriylar davlatida XVI asrning boshlarida ichki ziddiyatlar, o'zaro toju-taxt uchun kurashlashlar oqibatida yurtda siyosiy tizim izdan chiqqan ijtimoiy-iqtisodiy holat yomon edi, bu vaziyatdan foydalangan Dashti qipchoqdagi ko'chmanchi o'zbeklarni birlashtira olgan Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrni oson qo'lga kiritdi. Muhammad Shayboniyxon davlatining boshqaruv tizimini o'zigacha bo'lgan Temur davlatidan olgan bo'lsada, unga sezilarli o'zgartirishlar kiritgan. Shayboniylarning shu va shu kabi islohatlari xalq turmushini sezilarli o'nglandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Muhammad Shaybonixon va uning ozbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni. Bitiruv malakaviy ishi. 2018.
2. Eshov B.J. O'rta Osiyo qadimgi shaharlari tarixi. O'quv qo'llanma. -Toshkent, 2006



3. Sagdullayev.A Aminov.B O‘zbekiston tarixi davlat va jamiyat taraqqiyoti Toshkent 2000
4. Sulaymonov I.I."Boburnoma"da Shayboniyxonning g‘olibligi va ma’naviy tanazzuli taaviri//Samarqand davlat universiteti "Ilmiy axborotnomasi. 2016-yil, 6-son. - B. 93-98.
5. Hasanov B.V., va boshq. O‘zbekiston tarixi. T. Akademiyasi, 2005
6. Sh. Sh. Parmonov. Buxoro amirligi siyosiy jarayonlarida Shahrisabz bekligining tutgan o‘rni.
7. Khayrullayevich, N. A. (2023). Cooperation of the Shanghai Cooperation Organization in the Field of Education. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 358-364.
8. Botirova Halima Eshmamatovna, Parmonov Sharofiddin Shavkatovich Journal of Advanced Zoology Ethnic History of Shakhrisabz Province at The Beginning of The Xix-Xx Centuries.
9. Nazarova Z.X."RUSSIAN" ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. Bokschi o‘g‘il bolalar va qizlarning motivatsiya holati natijalarning birlamchi tahlili. 2023.
10. Murotjon o‘g‘li X. O. (2023). Measures to be Implemented to Preserve and Protect Architectural Monuments in the City of Bukhara. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(8), 402-406.
11. Murotjon o‘g‘li, X. O. (2024). Madaniy antropologiya va undagi ilmiy yondashuvlarning shakllanish tarixi. International journal of science and technology, 1(16), 53-58.